

## DEVONCHILIK AN'ANASI VA ALISHER NAVOIY DEVONLARINING BOSHQA IJODKORLAR DEVONLARDAN FARQI

Madaliyeva Hayitxon Abdulkarim qizi

Farg'ona davlat universiteti

@madaliyevahayitxon@gmail.com

949510725

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20092790>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq mumtoz adabiyotida shakllangan devonchilik an'anasining rivojlanish bosqichlari hamda uning turkiy adabiyotdagi o'rnini yoritiladi. Tadqiqotda Alisher Navoiyning ilk rasmiy devonlari va ularning tuzilish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, shoir devonlarining boshqa ijodkorlar devonlaridan farqli jihatlari ham ko'rib chiqilib, ularning adabiy-estetik ahamiyati ochib beriladi. Maqolada shoir devonlarining turkiy va forsiy adabiyot taraqqiyotidagi o'rnini ham ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** devonchilik an'anasi, rasmiy devonlar, o'ziga xos xususiyatlar

Sharq mumtoz adabiyotida shoirlar ijodini tartibga solish va avlodlarga yetkazishda devon tuzish an'anasi muhim o'rin egallaydi. Devonchilik an'anasi asrlar davomida shakllanib, arab va fors adabiyoti orqali turkiy adabiyotga ham kirib kelgan. Bu an'ana shoirlarning g'azal, ruboiy, qasida va boshqa lirik janrdagi asarlarini jamlash hamda ularni ma'lum tartib asosida joylashtirishga xizmat qilgan. Turkiy mumtoz adabiyot tarixida devonchilik an'anasi ayniqsa XV asrda yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bu jarayonda buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy devon tuzish an'anasini mukammal darajaga olib chiqdi.

Adabiyotshunoslikda har bir adabiy istilohning qaysi tilga mansubligi tarixiy-tadrijiy omillarga borib taqaladi. O'zbek tilining izohli lug'atida "devon" so'ziga quyidagicha sharh berilgan: "**Devon I** (forscha-she'rlar to'plami) muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she'rlarning (dostonlardan tashqari) to'liq to'plami. **Devon II** (forscha-davlat idorasi, sud mahkamasi) O'tmishda Sharq musulmon mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyo xonliklarida amal qilgan oliy davlat amaldorlarining majlisi. Devon qurmoq. Oliy davlat amaldorlari majlisini o'tkazmoq. Davlatning bosh idorasi va ayrim vazirliklarning mahkamalari; mahkama binosi. Devonda ishlovchi ba'zi mansabdorlarning unvoni-mirzoyi devon deb yuritiladi. Davlat oliy mahkamasini idora etuvchi amaldor - bosh mirzo. **Devon III** [f. ديوان – gilam to'shalgan supa] Divan".

"Adabiyotshunoslik lug'ati"da "Devon" – arabcha so'z bo'lib, ya'ni "yozish, ro'yxatga olish, to'plam" degan ma'nolarni bildirishi ko'rsatiladi. "Devon" so'zining qaysi tildan olingani va ma'nolarini yanada aniqroq bilish maqsadida bir nechta forscha, arabcha lug'atlarga murojaat etamiz.

"Farhangi Mu'yn"da bu so'zga shu tarzda izoh beriladi: "Devon – divon eroniy; devon – qadimgi ossuriy tilidagi "dap", dipi – yozmoq deganidir. 1.Vazirlik (qadimda). 2.Idora (qadimda). 3. Ofis-boshqarma. 4. Hisob-kitob bo'limi. Daromad va harajatlarni kiritib borish uchun mo'ljallangan umumiy daftar (kanselyariya daftari). 5. G'azna. 6. Davlat."

E'tiborlisi, ushbu Muhammad Mu'yn lug'atida "devon" so'zi aslida eroniy so'z bo'lsa ham, kelib chiqishi qadimgi ossuriy tilidagi "dap" yoki "dip" so'ziga bog'liqligi aytilmoqda. Bundan tashqari Mu'yn lug'atida devon so'zining yana devoni insho (mo'g'ullardan oldingi davrda shoh tomonidan rasmiy hujjatlar, idora va davlatlararo yozishmalarni boshqarib turiladigan joy),

devoni istifo, devoni muhosibot, devoni mazolim singari qo'llanishlari o'zbek tilidagi "Prezident devonxonasi" birikmasi bilan izohlash mumkin bo'ladi.

Hasan Amidning "Farhangi Amid"da "devon" so'zi va uning ma'nolari quyidagicha sharhlangan:

Devon – pahlaviycha: Divan. Xalq arzonxonasi, adolatxonasi, kanselariya-devonxona, hisob-kitob daftar (buxgalteriya), moliya daftari, arizalar va ulardan keyingi eronlik podshohlar davrida qo'llangan. Shuningdek, biror shoirning she'rlari chop etilgan she'r daftari yoki kitob. Arabchada ham devon shaklida qo'llanadi va ko'pligi "davovin yoki dayovin". Umar (r.a) eroniylar uslubida devon tashkil etgan birinchi shaxs hisoblanadi. U baytul-mol, ya'ni g'aznaning hisob-kitobi uchun, kirib-chiqish hamda qarz olgan kishilarni belgilab qo'yish niyatida boshqarma tuzgan. Bani Umayya hukmronligi davrida esa asta-sekinlik bilan boshqa devonlarga ham asos solindi. Jumladan, jand devoni, xiroj devoni, maktublar devoni, mazlumlari devoni va boshqalar. Bundan tashqari boshqa devonlarning ustidan nazorat qiluvchi "Oliy devon" ta'sis etilgan va uning raisini "Sohibi devon" deyishgan. Hozir ham Eronning davlat tuzumida mamlakat devoni va moliya devoni o'z faoliyatini olib bormoqda.

Muhammad bin Muharram bin Manzurning besh jildlik "Lison ul-arab" nomli izohli lug'atida devon shunday sharhlangan: "Devon" – so'zi sahifalarning jamlanmasi degan ma'noni anglatib, devon deb varaqlarni yig'ib bir butun holga keltirishga aytilgan. Abu Ubayda aytadiki, "devon" so'zi fors tilidan arab tiliga kirib kelgan. Miskiy esa "devon so'zi faqat kasra bilan keladi, 'ad divana". Kiso esa fatha bilan aytilsa ham bo'ladi, lug'ati mualla, ya'ni keyinchalik paydo bo'lgan shakl. Yana shunday fikrlar aytiladiki, "devon" so'zidagi "vov" arab tili qoidalariga bo'ysunmaydi, ya'ni "yoy" bilan "vov" bir-biriga kirishtirilib ketishi ham mumkin. Bu so'z "diyyan" bo'lishi kerak edi. Yoyi tashdid bilan o'qilishi kerak edi.<sup>5</sup>

Bundan tashqari "devon"ning "divan" shakli qadimgi Hindiston, Eron podshohlarining taxti asosan hozirda uy jihozlaridan "divan"ga o'xshagan uzun shaklda bo'lgani, ya'ni saroyda xalq dodini so'ragan podshohlar o'tirgan taxt ham "divan" deyilishi bilan bog'lanadi.

Keltirilgan bir necha lug'atlardan ma'lum bo'ladiki, "devon" so'zi suryoniy "dap", "dapi" ya'ni yozmoq degani, fors tiliga o'zlashib, bu so'zning ma'nosi kengaygan. Devon davlatda olib boriladigan iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni qayd etadigan daftar bo'lgan, keyinchalik davlat idoralari ham devon deb yuritilgan. Shoirlarning she'rlari jamlanib, tartib berilishi, ya'ni she'riy to'plam holiga keltirilishi aynan davlat yoki hukmdor nazoratida bo'lgan va shuning uchun ham bunday she'riy to'plamlarga "devon" deyilgan.

Sharq adabiyotida muayyan bir shoirning lirik she'rlar majmuasi va unda she'rlar qofiya va radifning tugallangan harflari asosida alifbo tartibida ko'chirilishi "Devon" deb nomlash, taxminan, X–XI asrlardan keng tus olgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, birinchi devon tartib bergan shoir Hanzalai Bog'disiy (vaf. 839)dir. Hanzalai Bog'disiy Xurosonlik, ya'ni hozirgi Afg'onistonning Bog'dis hududida Tohiriylar sulolasi davrida yashagan va 219 (mil. 834) yilda vafot etgan. Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Chahor maqola" asarida Ahmad bin Abdullo Xujastoniylar tilidan uning she'riy devoni borligini aytadi. Uning devonidan faqat besh baytlik g'azal va ikki baytlik qit'asi hamda fardi yetib kelgani qayd etiladi: "Bir kuni Ahmad bin Abdullo Xujastoniylardan so'rashadi: Sen Xuroson amirligidagi yuksak maqomga ega shaxslardan eding, shu davr haqida nima deysan? Shunda u javob berib, bir kuni Hanzala Bog'disiyning devonidan "davlat bu xuddi sherning og'zi kabidir, undan qochib qutulasan yoki uning yonida ulug'

darajalarga erisharsan”, mazmunidagi she’rni o’qiganini aytadi. So’ngra esa o’zi ham bor-budini sotib, Xurosondan qochib qolganini eslaydi. Avfiy Buxoriy ham undan ikki baytlik she’r qoldirgani eslatadi.

Ammo ba’zi tadqiqotchilar bu fikrni rad etgan holda, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” siga tayanib, ya’ni asarda Ajam shoirlari tazkirasida Rudakiy shoirlarning ustodi sifatida shunday deyiladi: “...somoniyalar zamonigacha forsiy she’r rivoj topdi va ustod Rodakiy bu ilmda shuaroning saromadi edi. Undan muallam sohib devon shoirni eshitmadik. Bas, vojibdurkim, (zikrni) ustod Rudakiydan boshlash...”. Shunga asosan, devon tartib berilishini Rudakiyga bog’laydi va Movarounnahrda Rudakiy Abu Abdulloh Ja’far binni Muhammad binni Hakim binni Abdurahmon binni Odam fors tilidagi g’azal, ruboiy, qasida, madhiy, marsiya, pandu hikmat, hasbi hol, mazammat, hajv hamda chistonlarni jamlab, ilk devon tartib bergan shoir deyiladi.

Bizningcha, Rudakiyning fors-tojik she’riyatida ilk devon sohibi deb berish o’rinli. Birinchidan, uning devoni saqlanib qolgan, ikkinchidan aynan Somoniylar davrida devonchilikka e’tibor qaratilgan. Manuchehr Domg’oniy o’zining baytida yozadi:

Az hakimon-i Xuroson ku Shahidu Balxiy,  
 Bu Shukuru Balxiyu va Abul Fath Bastiy.

Bu baytdan ham aynan Somoniylar davrida she’r va she’riyatga e’tibor berilgani ko’rinadi. Biroq ularning orasida Rudakiyгина saroyda bo’lgani sabab devon tartib bera olgan shoir hisoblanadi.

Sharq adabiyotida ilk bor devon tuzga shaxs bu – shayx Sa’diy. Negaki uning devoni bizgachga to’liqroq yetib kelgan va yuqoridagi devon tuzga shaslarning devonlariga qaraganda mukammalroq edi. Demak sharq adabiyotida ilk devon X-XI asrlarda shakllangan va bu davrdan keying ijodkorlar shayx Sa’diy boshlab bergan an’anani davom ettirishgan. Shayx Sa’diyning devonining yaratilish sababiga kelsak, u shunchaki o’zi yaratgan lirik namunalarni yo’qolib ketishini oldini olish maqsadida barcha namunalarni to’playdi va yagona bir kitob holiga keltiradi, ammo shoir o’zi ham bilmas edi devon yaratayotganini. Shundan so’ng sharq adabiyotida devon tuzgan ijodkorlar ko’paya boshladi ba bularga: forsiy adabiyotda Shayx Sa’diy, Abdurahmon Jomiy va turkiy adabiyotda Atoyi, Sakkokiy va boshqalar. Yuqorida sanab o’tganlarimiz Alisher Navoiygacha devon tuzgan shaxslar edi.

Sharq adabiyotida eng ko’p devon tuzgan shaxs deb Xusrav Dehlaviy e’tirof etilgan. Turkiy adabiyotgacha shu tariqa devonchilik an’anasi Navoiygacha yetib keldi. Navoiyda e’tibor qaratishimiz lozim bo’lgan jihatlar bor. Musulimon sharqiy she’riyati tarixini Alisher Navoiy lirikasiz tasavvur etib bo’lmaydi. Uning lirik merosi o’zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she’riyatning davomi bo’lishi bilan birga barcha zamonlardagi o’zbek she’riyatining eng yuksak cho’qqisi hamdir. Ikki tilda ham yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo’lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tilidagi she’rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi rasmiy merosi bilan o’sha davr she’riyati rivojiga katta hissa qo’shdi.

A.Navoiyning turkiy tildagi devonlarining o’zida 45 ming misra she’rlari va bundan tashqari shoirning g’ayri devon she’rlari ham bor, ya’ni devonlari tarkibiga kirmagan she’rlari ham (boshqa turdagi). Bundan tashqari yuqorida aytilgan 12 ming misra fors-tojik tilidagi she’rlari esa “Devoni Foni”ning ichiga kiradi.

Quyida Alisher Navoiy devonlarini sanab o’tamiz:

1. Ilk devon
2. Oqquyunli muxlislar devoni
3. Badoyi' ul-bidoya
4. Navodir un-nihoya
5. G'aroyib us-sig'ar
6. Navodir ush-shabob
7. Badoye ul-vasat
8. Favoyid ul kibar
9. Devoni foniy

Navoiy lirikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda juda ko'p o'ziga xosliklar bor. Uning lirikasidagi o'ziga xosliklardan biri bu – hayotiy obrazli ifodalanishidir. Hayotiy obrazli ifodalanishi boshqalarda ham bor edi. Misol uchun Shayx Sa'diy, Dehlaviylarda ham bor edi, faqat bitta kamchiligi – Shayx Sa'diyda to'liq hayotiy bo'ladigan bo'lsa, Dehlaviy va Jomiylarda tasavvurga o'tib ketgan, Navoiy esa ikkisni uyg'unlashtirib yubordi. Ikkinchi o'ziga xoslik esa ikki yuzdan ortiq badiiy san'at qo'llanilgan. Uchinchisi, hasbi hollik bo'rtib turadi. Hasbi hol turiga izoh beradigan bo'lsak, uning ma'nosi arabcha – ahvol bayoni, hol-ahvol tasviridir. Devon lirikasida haqida so'z borganda, lirika bu oniy lahzalarni tasvirlovchi janr, ya'ni inson qalbidan o'tadigan, biror bir voqeani ko'rib ta'sirlanadi, bu esa oniy lahza bo'ladi. Ana o'sha oniy lahzalar natijasida hasbi hollik bo'ladi. Ana o'sha hasbi hollik bo'lmasa, estetik ideal bo'lmaydi, ya'ni Navoiy o'zi boshidan kechirganlari haqida yozadi. To'rtinchisi, har bir janrning imkoniyati to'la ishga solinadi. Misol uchun g'azal misolida ko'rsak, boshqa ijodkorlar g'azalda yor tasviri, tasavvuf kabi narsalarni yoritdi. Beshinchisi, qit'aga sarlavha qo'yish, g'azalga sarlavha qo'yish bo'lgan, ammo kam uchragan, ruboiyda ham kam bo'lsa-da uchragan, biroq qit'ada uchramagan. Qit'a o'z nomi bilan arabchadan olingan bo'lib, parcha, bo'lak degan ma'nolarni anglatadi, ya'ni u qayerdandir uzib olinyapti (iqtibosga o'xshagan holat). Shu iqtibos anglab olinishi uchun Navoiy unga sarlavha qo'yan. Sarlavha orqali esa biz uni tushunib olamiz, ya'ni qit'aga sarlavha qo'yish Navoiydan boshlab odat tusiga kirgan. Oltinchisi – g'azal hajmi chegarasi. Lirikada aytganimizdek, lirika oniy lahzalarni ifodalaydi, g'azal ham shunday. G'azalda ana shunday oniy lahzalarni ifodalab bo'lmaydi, ya'ni zerikarli bo'lib qoladi. Shuning uchun Navoiy g'azal hajmini chekladi va g'azalning eng yaxshi shakli 7–9 baytgacha bo'lishini aytadi, ammo ba'zi hollarda 13 baytgacha dedi.

Alisher Navoiyning muxlislari tomonidan 1465–1466-yillarda to'planib, o'sha davrning "xattotlar sultoni" nomi bilan mashhur bo'lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta'liq xatida ko'chiriladi. Navoiyning o'zi "Badoye' ul-bidoya"ga yozgan debochasida:

"Ammo xalq orasida ming bayt, ikki ming bayt ortiqroq oshuqlarim o'zlari jam qilib yurdilar, bag'oyat mashhur bo'lib erdi", – deb yozadi. Devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda "Ilk devon" deb nomlangan. Muxlislar tomonidan yozilgan devonga Abu Said Mirzo boshchilik qilgan. "Ilk devon" tarkibiga: 391 g'azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas – jami 434 she'rdan tashkil topgan.

Devondagi she'rlarning asosiy qismini g'azallar tashkil etadi. G'azallar 28 arab harflari bilan tugallanuvchi qofiya hamda radiflar asosida tuzilgan. Devon musulmon sharqida mavjud

an'anaga muvofiq hamd g'azal bilan ibtido topadi. Ushbu devonni Temuriy shaxzodalardan biri bo'lgan Abu Sayi Mirzo tomonidan moliyalashtirilgan.

Alisher Navoiyning yana bir muxlislari tomonidan yozilgan devoni bu – "Oqquyunli muxlislar devoni". Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov jahon qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalarni o'rganish asnosida yana bir Navoiy muxlislari tomonidan tuzilgan devonni aniqladi. Mazkur devon shoirning Oqquyunlilar sulolasi (Ozarbayjon va G'arbiy Eron hududida 1378-1508-yillarda hukmronlik qilgan o'g'uz turk hukmronligi hududidagi muxlislari tomonidan tuzilgan bo'lib, hozircha fanda shartli ravishda "Oqquyunli muxlislar devoni" nomi bilan yuritilmoqda. Devon 1471-yil 25-dekabrda Anisiy taxallusi bilan she'rlar yozgan shoir va xattot Abdurahim ibn Xorazmiy tomonidan Oqquyunlilar saltanatining markazlaridan biri bo'lgan Sheroz shahrida ko'chirilgan. Devonda jami 229 ta she'r bor: 224 g'azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarji'band. Bu majmuadagi 224 g'azaldan 217 tasi "Badoyi' ul-bidoya"ga va faqat bittasigina "Navodir un-nihoya"ga o'tgan. Devondagi 85% g'azal "Ilk devon"da uchramaydi.

Navoiyning ilk rasmiy devoni "Badoyi' ul-bidoya"dir. Ushbu devonni A.Navoiy Husayn Boyqaro taxtga chiqqandan keyin uning topshirig'i bilan o'zining ilk rasmiy devoniga tartib berdi. Navoiy unda devon tartib berish masalalariga to'xtaladi va quyidagi xususiyatlarni alohida ko'rsatib o'tadi: devonni g'azallar bilan boshlash, g'azallarni 28 harf bilan emas, balki 32 harf (چ - chim, ج - je, گ - gof, ل - lom-alifni ham qo'shgan edi) bilan yakunlash zarurligi, devonga dastavval Allohga hamd va Payg'ambarimizga na't mavzusidagi g'azallarni joylashtirish, g'azallarga ma'rifat va ma'viza ( arabcha-diniy va'z) mavzulariga doir baytlar kiritish, g'azal matlasida keltirilgan fikrni maqtagacha rivojlantirib borishni nazarda tutadi. Devonda 11 janrga oid, jami 1046 ta she'r mavjud. Devonning debocha qismida ilmi aruz, ilmi qofiya haqidagi qarashlarini berdi. Navoiy o'zining ikkinchi rasmiy devonini tuzgan paytda unga ham debocha yozadi va o'zining ilmiy qarashlari bilan boyitadi, shu bilan Navoiydan keyin devonlarga debocha yozish an'anasi paydo bo'ldi. Sharq adabiyotida debochada shoir o'zining ilmiy-nazariy qarashlarini beradi. Navoiy "Badoye ul-bidoya"ning debochasida muxlislari tomonidan tuzilgan devonlarning kamchiliklarini aytib o'tadi va bunga qo'shimcha o'zidan oldin devon tuzgan salaflar ( "Salaf" (arabcha: سلف) so'zi lug'atda "avval yashab o'tganlar", "ajdodlar", "o'tmishdoshlar" degan ma'nolarni anglatadi, istilohda esa Payg'ambarimiz (s.a.v) zamonlarida, sahobalar, tobe'inlar va tabaa-tobe'inlar davrida ( dastlabdi uch asrda) yashagan solih musulmonlar-"Salafi solih" (solih ajdodlar) nazarda tutiladi.), ya'ni o'zidan oldin o'zi qilmoqchi bo'lgan ishni qilganlarning qilgan kamchiliklarini ham aytib o'tadi.

Birinchi navbatda devon tuzish uchun arab alifbosi asos bo'lgan va navoiy aytadi: "Arablar alifbosida 28 ta harf bor va devonda 28 ta harfdan iborat g'azal bo'lishi lozim, ammo turkiy alifboda 32 ta harf bor va biz tuzayotgan devon tili ham turkiy edi. Ammo salaflar turkiy tilda devon tuzgan bo'lsa ham uning harflariga e'tibor berishmagan, ular 28 harf asosida tuzgan edi va ubu ularning xatosi edi".

Ikkinchi navbatda "Alif" g'azallarga u zot o'z e'tiborini qaratgan va harflarni birin-ketinligi esa radiy va raviyga e'tibor berilishi va harflar anashularda kelishligini aytib o'tgan. Uchinchidan, sharq devonchiligi uchun g'azal asos bo'lishi va devon tartiblashda g'azaldan boshlashga urg'u bergan. Shundan so'ng ruboiy va boshqa janrlarni o'rniga qo'ygan. To'rtinchidan, Alisher Navoiy hasbi holikka e'tibor qaratgan.

A.Navoiy tartib bergan ikkinchi rasmiy devon “Navodir un-nihoya” (Behad nodirliklar)dir. Devon Hirotdagi mashhur xattot Abdujamil kotib tomonidan ko’chirilgan va qo’lyozma nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Ushbu devonning janrlariga e’tibor qaratib, avvalgi devon bilan solishtiradigan bo’lsak, devondagi she’rlarning aksariyati, ya’ni 65 she’rdan 63 tasi ilk rasmiy devonda bor ( bir qit’a va ruboiydan tashqari). Shuni e’tibordan chetda qodirmasligimiz lozimki, devonning to’liq nusxasi hali bizgacha yetib kelgani yo’q, balki ana shu to’liq nusxada bu kabi takrorlarga yuzlashmasmiz.

A.Navoiy 1492-1498-yillard Husayn boyqaroning taklifi bilan o’zining barcha she’rlari, jumladan, avvalgi rasmiy devonlariga kirgan she’rlarini ham to’plab, “Xazoyin ul-maoniy” (Ma’nolar xazinasi) kulliyotini yaratadi. Kulliyot to’rt devonni o’z ichiga olganligi uchun “Chor devon” deb ham yuritiladi. Navoiy ushbu kulliyotini inson umrining fasllariga moslab nom beradi. Shu ma’noda 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo’lgan davrni inson umrining bahori deb atadi va kulliyotning birinchi devonini “G’aroyib us-sig’ar) ( Bolalik g’aroyibotlari) deb nom berdi. 20-35 yoshgacha bo’lgan davrni inson umrining yozi deb atadi va “Navodir ush-shabob” (Yigitlik nodirliklari) deb nom berdi. 35-40 yoshgacha bo’lgan davrni esa “Badoye ul-vasat” (O’rta yosh go’zalliklari) deb nomladi. 40-60 yoshini umrning qishiga o’xshatib, “Favoyid ul-kibar” (Keksalik foydalari) deb atadi. Har bir devonga 650 tadan g’azal kiritdi va shunga muvofiq boshqa she’riy janrlar (jami 16 janr)ga ham joy ajratdi. Shoir kulliyoti uchun maxsus debocha (arabcha – muqaddima, so’z boshi) ham yozdi. Debocha “G’aroyib us-sig’ar”ning boshlanish qismidan o’rin olgan bo’lib, unda an’anaviy hamd va na’t qismlaridan so’ng zamona hukmdori Husayn Boyqaro madh etiladi. Debochada jami 30 ta ruboiy keltirilgan.

Turkiy adabiyotga soqiynoma janri ham Navoiy ijodi bilan birga kirib keldi. “Favoyid ul-kibar” devonidagi kichik dostonga qiyoslash mumkin bo’lgan soqiynoma hajman 458 baytdan iborat bo’lib, Navoiy yashagan davrdagi tarixiy shaxslar, davr muammolari, eng avvalo, Navoiy shaxsi bilan bog’liq bo’lgan masalalarni o’zida aks ettirganligi bilan ham ahamiyatlidir.

A. Navoiy forsiy bitgan she’rlarini yig’ib, “Devoni Foni” toplami tuzdi. Bizgacha devonning bir necha qo’lyozma nusxalari yetib kelgan. Mukammal asarlar to’plamining 18, 19 va 20-jildari, “Devoni foni”ni o’z ichiga oladi. Ushbu devonning mukammal nusxasi topilmagan.

Ko’ringanidek, Navoiyning barcha she’riy merozi 9 devonda jamlangan bo’lib, ularning ikkitasi muxlislari tomonidan tuzilganligi Navoiy she’rlariga hamma davrlarda yuqori darajada ehtiyoj bo’lganligidan darak beradi.

Xulosa. Devonchilik an’anasi Sharq mumtoz adabiyoting muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, she’riy merozni tartibli holda saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishda katta ahamiyat kasb etgan. Devonlar orqali shoirlarning badiiy mahorati, g’oyaviy qarashlari va davr adabiy muhiti aks etgan.

Navoiyning yuqoridagi devonlarini chuqur o’rganish, tadqiq qilish shoirning ilmiy va badiiy ijod sohasidagi san’atkorligini muhim qirralarini ochib berdi. Shoirning devonlari devonchilik an’analarining eng mukammal namunasi hisoblanadi. Uning devonlari boshqa shoir lar devonlaridan puxta tartiblanganligi, mavzularning kengligi, g’oyaviy chuqurligi hamda tasavvufiy va insonparvarlik g’oyalari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, devonlarning yosh davrlari asosida tuzilishi Navoiy devonlariga xos noyob xususiyat hisoblanadi.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. “Navoiyshunoslik” 1-jild – “Tamaddun”, Toshkent-2019
2. Atayev A. “VIII-XIII asrlarda Xorazmda yaratilgan arab tilidagi manbalartadqiqi” , Toshkent “Yashil yaproq” nashriyoti- 2024
3. A.Navoiy va XXI asr (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari)- Toshkent “ Tamaddun” 2017
4. A.Abdug’aforov “Navoiyning ijod olami” (maqolalar to’plami) Tosh. Fan, 2001
5. Vahob Rahmov “Mumtoz so’z sehri”
6. “Istiqlool davri o’zbek navoiyshunosligi” 30 jildlik- Toshkent 2022
7. S.Umarova, “DEVON VA DEVONCHILIK AN’ANALARINING ADABIY-TARIXIY SHAKLLANISH JARAYONI” maqola
8. <https://cyberleninka.ru>
9. <https://oefen.uz>
10. <https://uz.wikipedia.org>
11. <https://in-academy.uz>